

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL CONFERENCE  
“DIGITAL TECHNOLOGIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRACTICAL  
IMPLEMENTATION IN THE INDUSTRY”**

APRIL 27-28, 2023

**RADIOGRAMMALARNI ESHITIB QABUL QILISHNI O‘RGANISH VA TEZLIGINI  
OSHIRISH USULLARI VA ALGORITMLARI**

**O.A. Mirjalolov<sup>1</sup>, V.R.Uzakov<sup>2</sup>, I.M.Xalmatov<sup>3</sup>, J.R.Kilichov<sup>4</sup>, Z.K.G‘ayratov<sup>5</sup>**

<sup>1,2,3</sup>O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va  
aloqa harbiy instituti professor-o‘qituvchilar

<sup>4,5</sup>Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU Samarqand filiali, “Telekommunikatsiya  
injiniringi” kafedrasi professor-o‘qituvchilar

**<https://doi.org/10.5281/zenodo.7871539>**

**Annotatsiya.** Maqolada harbiy radiotelegrafchi mutaxassislarni tayyorlash jarayonida eshitib qabul qilish mashqlarini tashkillashtirish, bajarish va baholash tartiblari ko‘rib chiqilgan bo‘lib, bu jarayonda axborot texnologiyalarni qo‘llash hamda dasturiy vositalarni ishlab chiqish usullari bayon etilgan. Radiotelegrafchilarni tayyorlash trenajeri dasturiy ilovasida uzatish va eshitib qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish uchun foydalaniladigan o‘quv radiogrammalarni tuzish tartibi hamda uni belgilangan tezlikda uzatish algoritmlari keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** radiogramma, radiogramma matni, uzatish tezligi, o‘quv radiogrammasi, eshitib qabul qilish, dasturiy ilova, algoritm.

## **KIRISH**

Eshitib qabul qilish atamasi ostida radiotelegraf signallarini tinglash hamda harf, raqam yoki tinish belgilari shaklida yozish jarayoni tushuniladi. Eshitib qabul qilishni o‘rganish radiotelegrafchilar faoliyatidagi radiotelegraf aloqasini ta’minalash bo‘yicha eng muhim amaliyot hisoblanadi [1,2].

Eshitib qabul qilish malakasini shakllantirish quyidagi bosqichlardan tashkil topadi:

- Morze alifbosi asoslari va eshitib qabul qilishning umumiy qoidalari o‘rganish;
- Morze alifbosi kodlarini o‘zlashtirish;
- o‘zlashtirilgan telegraf alifbosi belgilarini mustahkamlash;
- eshitib qabul qilish tezligini oshirish.

Dastlabki bosqichda Morze alifbosi kodlarini tuzilishi, radiotelegrafchilarning ishchi o‘rniga talablar, unda joylashish qoidalari, qabul qilish uchun qalam va daftarni tayyorlash tartibi, har bir harfni tez va samarali yozish usullari o‘rganiladi [3]. Telegraf alifbosi kodlarini o‘zlashtirish bosqichida alifbo harflari, raqamlar va tinish belgilarini 3-5 tadan guruhlarga ajratilib, muayyan ketma-ketlikda o‘zlashtiriladi. Bu bosqichda o‘rganuvchilarga individual va individual-guruhli yondashiladi. O‘zlashtirilgan telegraf alifbosi belgilarini mustahkamlash bosqichida o‘quv mashg‘ulotlari guruhli yoki individual-guruhli shaklda tashkillashtirilishi mumkin bo‘ladi. Eshitib qabul qilish tezligini oshirish nisbatan uzoq davom etadigan bosqich bo‘lib, natijalar ko‘pincha o‘rganuvchilarning shaxsiy ma’suliyati va ishtiyoqiga bog‘liq hisoblanadi. Shunga qaramasdan, eshitib qabul qilish tezligini oshirish uchun uchta asosiy usul qo‘llaniladi.

## **ESHITIB QABUL QILISH TEZLIGI**

Eshitib qabul qilish tezligini sakrovchan oshirish usuli - o‘zlashtirilgan qabul qilish tezligidan 1-2 guruh yuqori tezlikka birdaniga o‘tiladi. Bu usuldan mashg‘ulotlarda ham, mustaqil tayyorgarlik vaqtlarida ham foydalanish mumkin. Eshitib qabul qilish tezligini bosqichma-bosqich oshirish usuli - usulning mohiyati qabul qilish tezligini o‘zlashtirilgan

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL CONFERENCE  
“DIGITAL TECHNOLOGIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRACTICAL  
IMPLEMENTATION IN THE INDUSTRY”**

APRIL 27-28, 2023

tezlikdan 1-2 guruh yuqori tezlikka asta-sekinlik bilan oshirishdan iborat. Bunda o‘quv matnlarini uzatish tezligi bir muncha muddat o‘zgarishsiz saqlanadi, keyin asta-sekinlik bilan oldin o‘zlashtirilgan tezlikkacha kamaytiriladi. Bunda tezlikni 2 guruhga birdan oshirib yuborish maqsadga muvofiq hisoblanmaydi.

Eshitib qabul qilish tezligini keskin oshirish usulida o‘quv matnni uzatish avval yaxshi o‘zlashtirilgan tezlikda boshlanadi va o‘rganuvchilarga qiyinchilik tug‘dirmaydi. Bir necha daqiqalardan so‘ng uzatish tezligi avvalgisidan 2-3 guruhga keskin oshiriladi. Keyin yaxshi o‘zlashtirilgan tezlikdan yuqoriroq tezlikka keskin tushiriladi.


Eshitib qabul qilish malakasini shakllantirish bo‘yicha bochqichlardi barcha pedagogik usullarni qo‘llash samaradorligini oshirishning zamonaviy usuli bu jarayonga axborot texnologiyalarini tatbiq etish hisoblanadi [4,5].

Qaysi usul qo‘llanilishidan qa‘tiy nazar eshitib qabul qilish mashqlari 1-rasmida tasvirlangan algoritm bo‘yicha amalga oshiriladi. Algoritmda ko‘ra eshitib qabul qilish mashqini boshlashdan oldin o‘rganuvchining tayyorgarlik darajasiga mos keladigan tarkibga ega o‘quv radiogrammasi matni tayyorlanadi hamda maxsus qurilma ("ADKM" - avtomatik morze kodi datchigi) yoki kompyuter ilovasi, yoki o‘qituvchining o‘zi (yaxshi tayyorgarlikka ega o‘rganuvchilardan biri) yordamida zaruriy tezlikda uzatiladi. O‘rganuvchilar uzatilgan radiogrammani eshitib qabul qiladilar va belgilangan tartibda yozib oladilar. Radiogrammalarni yozib olish uchun sinov mashqlarida maxsus tayyorlangan blankalar foydalaniлади. Yozib olingan matndagi xatoliklar hisoblanadi va qoida ko‘ra, (1) ifodaga muvofiq baholanadi.

$$\Delta = \begin{cases} "Qabul qilindi"; \sigma \leq 3; \\ "Qabul qilinmadid"; \sigma > 3; \end{cases} \quad (1).$$

Bundan tashqari, o‘quv mashg‘ulotlarida natijalar (2) ifodaga muvofiq ham baholanishi ham mumkin.

$$\Delta = \begin{cases} "A'lo"; \sigma \leq 1; \\ "Yaxshi"; \sigma = 2; \\ "Qoniqarli"; \sigma = 3; \\ "Qoniqarsiz"; \sigma \geq 4; \end{cases} \quad (2).$$



**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL CONFERENCE  
“DIGITAL TECHNOLOGIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRACTICAL  
IMPLEMENTATION IN THE INDUSTRY”**

APRIL 27-28, 2023

1-rasm. Eshitib qabul qilish mashqini bajarish va baholash algoritmi.

Yuqoridagi algoritmdan radiogrammalarni eshitib qabul qilish jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini tafbiq etishda foydalanish mumkin. Bunda o‘quv radiogrammasi matnini tuzish va belgilangan tezlikda uzatishni immitatsiya qilish qoidalari va tartibini ko‘rib chiqamiz.

Istalgan  $M_R$  radiogramma matni tarkibini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M_R = \sum_{j=1}^m G_j, \quad (3),$$

bu yerda,  $G_j$  – radiogrammaning j-guruhi (beshta harf yoki raqamdan iborat so‘z),  $m$  – radiogrammadagi guruhlarning umumiy soni (aksariyat hollarda 30 guruhdan oshmaydi).

Radiogrammadagi guruhlar beshta harfdan iborat bo‘lganligi sababli,

$$G_j = \sum_{i=1}^5 L_i \quad (4),$$


ifoda to‘g‘ri bo‘ladi, bu yerda,  $L_i$  – tanlangan alifboga muvofiq lotin yoki kirill harflaridan, yoki raqamlardan ihtiyyoriy biri bo‘lib quyidagicha aniqlanadi:

$$L = \begin{cases} \{a, b, c, \dots, z\}; \text{lotin alifbosi tanlangan}; \\ \{a, b, v, \dots, h\}; \text{kirill alifbosi tanlangan}; \\ \{1, 2, 3, \dots, 0\}; \text{raqamlar tanlangan}; \\ \{a, b, v, \dots, h, 1, 2, \dots, 0\}; \text{aralash tanlov}; \end{cases} \quad (5).$$

Yuqoridagi ifodalar asosida ihtiyyoriy mazmundagi o‘quv radiogrammasini tuzish algoritmini ishlab chiqish mumkin bo‘ladi (2-rasm):

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL CONFERENCE  
“DIGITAL TECHNOLOGIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRACTICAL  
IMPLEMENTATION IN THE INDUSTRY”**

APRIL 27-28, 2023



2-rasm. Eshitib qabul qilish uchun o'quv radiogrammasini tuzish algoritmi.

### ESHITIB QABUL QILISH ALGORITMLARINING NATIJASI

Algoritmning 2-4 qadamlarida tuziladigan radiogrammaning ko'rsatkichlari belgilanadi va yordamchi parametrlarga boshlang'ich qiymat beriladi. 5-8-qadamlar siklik jarayon bo'lib, radiogrammaning 5 ta harfdan iborat guruhlari shakllantiriladi. 5-qadamda ihtiroyi (tasoddifiy)  $i$ -harf yoki raqam tanlanadi va 6-qadamda radiogrammaning  $j$ -guruhi tarkibiga qo'shiladi, 7-qadamlarda guruhi hajmi nazorat qilinadi, ya'ni guruhi tarkibiga 5 ta harf (yoki raqam) kiritilgan bo'lsa, ushbu guruhi 9-qadamda matn tarkibiga kiritiladi aks holda guruhi navbatdagi harf tanlashga o'tiladi. O'ninch qadamda shakllantirilgan guruhlari soni radiogramma uchun belgilangan guruhlari soni  $m$  bilan taqqoslanadi. Shakllantirilgan va matnga qo'shilgan guruhlari soni belgilangan  $m$  teng bo'lganda matn shakllantirilgan hisoblanadi va mashq uchun aks ettiriladi.

Eshitib qabul qilish jarayonidan yana bir muhim masala, qabul qilish tezligini belgilashdir. Qabul qilish tezligi bir daqiqada qabul qilingan guruhlari soni bilan o'lchanadi. Lekin, harf va raqamlarning Morze kodlari turlicha uzunlikka egaligi sababli guruhlari uzunligi ham aniq qiymatga ega bo'lmaydi va aniq tezlikni belgilashda qiyinchilik tug'diradi. Bu masalani yechish uchun quyidagi tahlillarga murojaat qilamiz.

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL CONFERENCE  
“DIGITAL TECHNOLOGIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRACTICAL  
IMPLEMENTATION IN THE INDUSTRY”**

APRIL 27-28, 2023

Bu formula asosida har bir harf yoki raqam uchun turlicha bo‘lgan uzatish davomiyligini hisoblab chiqish mumkin (1-jadval).

1-jadval.

Morze alifbosi belgilarining uzatish davomiyligi.

T.r.	Harflar (raqamlar)	Morze belgisi	Harf (raqam) davomiyligi	T.r.	Harflar (raqamlar)	Morze belgisi	Harf (raqam) davomiyligi
A	• —	<b>5 <math>\tau_o</math></b>		U	• • —	<b>7 <math>\tau_o</math></b>	
B	— • •	<b>9 <math>\tau_o</math></b>		V	• • • —	<b>9 <math>\tau_o</math></b>	
Ch (Ч)	— • — •	<b>11 <math>\tau_o</math></b>		X	— • • —	<b>11 <math>\tau_o</math></b>	
D	— • •	<b>7 <math>\tau_o</math></b>		Y	— • — —	<b>13 <math>\tau_o</math></b>	
E	•	<b>1 <math>\tau_o</math></b>		Z	— — • •	<b>11 <math>\tau_o</math></b>	
F	• • — •	<b>9 <math>\tau_o</math></b>		G' (Г̄)	• — —	<b>9 <math>\tau_o</math></b>	
G	— — •	<b>9 <math>\tau_o</math></b>		O' (О̄)	— — — •	<b>13 <math>\tau_o</math></b>	
H	• • • •	<b>7 <math>\tau_o</math></b>		Sh (Ш)	— — — —	<b>15 <math>\tau_o</math></b>	
I	• •	<b>3 <math>\tau_o</math></b>		'	• • — —	<b>11 <math>\tau_o</math></b>	
J	• — — —	<b>13 <math>\tau_o</math></b>		1	• — — — —	<b>17 <math>\tau_o</math></b>	
K	— • —	<b>9 <math>\tau_o</math></b>		2	• • — — —	<b>15 <math>\tau_o</math></b>	
L	• — • •	<b>9 <math>\tau_o</math></b>		3	• • • — —	<b>13 <math>\tau_o</math></b>	
M	— —	<b>7 <math>\tau_o</math></b>		4	• • • • —	<b>11 <math>\tau_o</math></b>	
N	— •	<b>5 <math>\tau_o</math></b>		5	• • • • •	<b>9 <math>\tau_o</math></b>	
O	— — —	<b>11 <math>\tau_o</math></b>		6	— • • • •	<b>11 <math>\tau_o</math></b>	
P	• — — •	<b>11 <math>\tau_o</math></b>		7	— — • • •	<b>13 <math>\tau_o</math></b>	
Q	— — • —	<b>13 <math>\tau_o</math></b>		8	— — — • •	<b>15 <math>\tau_o</math></b>	
R	• — •	<b>7 <math>\tau_o</math></b>		9	— — — — •	<b>17 <math>\tau_o</math></b>	
S	• • •	<b>5 <math>\tau_o</math></b>		0	— — — — —	<b>19 <math>\tau_o</math></b>	
T	—	<b>3 <math>\tau_o</math></b>					

Morze kodlari bir yoki bir nechta morze belgilari (“nuqta”, “tire”) kombinatsiyasidan iborat bo‘lib, quyidagicha ifodalanishi mumkin:

$$K_M = \overline{K_1 K_2 \dots K_l} \quad (6),$$

bu yerda,  $K_i$  – Morze kodining bitta belgisi bo‘lib, quyidagicha aniqlanishi to‘g‘ri bo‘ladi:

$$K_i = \begin{cases} "nuqta"; & \tau \leq \tau_o \\ "tire"; & 2\tau_o < \tau \leq 3\tau_o \end{cases} \quad (7),$$

bu yerda,  $\tau$  – Morze kodi bitta belgisini uzatish davomiyligi,  $\tau_o$  – nuqtani belgilangan tezlikka muvofiq uzatish tayanch vaqt.

Ma’lumki, har bir harfining Morze kodi tarkibi ma’lum bo‘lsa, bu kodni uzatish davomiyligi quyidagicha aniqlanadi:

$$T_{kod} = k\tau_N + n\tau_T + lp = \tau_N(k + 3n + l) \quad (8),$$

$$T_M = 7(m - 1)\tau_N + 12m\tau_N + T_{kod umum} \quad (9),$$

$$T_M = \frac{m}{V_R} \quad (10).$$

9 va 10 ifodalar yordamida  $\tau_o$  qiymatini aniqlash formulasini topamiz:

$$\tau_o = \frac{\frac{m}{V_R} - \sum_{g=1}^{5m} T_{kod g}}{7(m-1)+12m} \quad (11).$$

**INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL CONFERENCE  
“DIGITAL TECHNOLOGIES: PROBLEMS AND SOLUTIONS OF PRACTICAL  
IMPLEMENTATION IN THE INDUSTRY”**

**APRIL 27-28, 2023**

Nuqtani belgilangan tezlikka muvofiq uzatish tayanch vaqtin aniqlangandan so‘ng eshitib qabul qilish uchun mo‘ljallangan o‘quv radiogrammasini Morze kodida belgilangan tezlikda eshittirish mumkin bo‘ladi. Bayon etilgan tartib asosida o‘quv radiogrammasini belgilangan tezlikda uzatish algoritmini tuzamiz (3-rasm).

**XULOSA**

1. Morze kodini eshitib qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantirish va tezligini oshirish jarayoni uchun dasturiy ilovalardan foydalanish bir necha barobar yuqori samaradorlikka erishish imkoniyatini beradi. Buning uchun ushbu jarayonni batafsil tahlil etish hamda aniq algoritmlarini ishlab chiqish talab etiladi. Maqolada bu masalaning asosli yechimi taklif etildi.

2. O‘quv matnini shakllantirish va belgilangan tezlikda uzatish algoritmlaridan faqt o‘quv mashqlarida emas, balki qo‘sishlarda foydalaniladigan niqoblovchi radiogrammalarni avtomatlashgan tarzda tuzish hamda radiokanallari orqali uzatish jarayonida ham foydalanish mumkin.

**REFERENCES**

1. С.Г. Голубцов, В.Г.Мицкевич, А.А. Автушко, В.А. Шахрай. Методика подготовки радиотелеграфистов: учеб. пособие— Минск: ВА РБ, 2016. – 68 с.
2. А.Д. Корепанов, Ю.В. Овсянников О.А. Хаменюк. Основы методики подготовки радиостанций. Учебное пособие, Таганрог-2012 г.
3. О.А. Миржалолов, Халматов И.М., Узаков В.Р. Радиотелеграфчилик комплекс тайёрлаш асослари: Ўқув қўлланма - Тошкент: 2020. - 130 с.
4. Халматов И.М., Узаков В.Р. “Особенности разучивания передачи ключом телеграфных знаков азбуки Морзе с использованием ИКТ”, “INNOVATION TEXNOSYSTEMS” илмий-техник журнали, 4(4)-сон. АКТ ва АХИ нашри/Тошкент, 2021, 46-54.
5. Халматов И.М., Узаков В.Р. “Особенности разучивания передачи ключом телеграфных знаков азбуки Морзе с использованием ИКТ”, “INNOVATION TEXNOSYSTEMS” илмий-техник журнали, 4(4)-сон. АКТ ва АХИ нашри/Тошкент, 2021, 46-54.